



Esonaliyeva Husnida Shavkatjon qizi

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti 2-bosqich talabasi husnidaesonaliyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Aleksandr Faynberg hayoti va ijodi, uning asarlari, jumladan, uning "Yulduz" she'ri, uning yaratilishi, asosiy g'oyasi, Faynberg ijodida bu she'rning o'rni, shuningdek, unda qo'llangan badiiy tasviriy vositalar va ramziy obrazlar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Aleksandr Faynberg, "Pushkin" medali, ramziy obrazlar, antiteza, metafora, simvol, lirika.

Аннотация: В данной статье представлена информация о жизни и творчестве Александра Файнберга, его произведениях, в том числе стихотворении «Звезда», истории его создания и основной идее, месте этого стихотворения в творчестве Файнберга, а также о художественно-изобразительных средствах и символических образах, использованных в нем.

Ключевые слова: Александр Файнберг, медаль «Пушкин», символические образы, антитеза, метафора, символ, лирика.

Annotation: This article provides information about the life and literary work of Aleksandr Faynberg, his works, including the poem "Star", its creation and main idea, the place of this poem in Faynberg's *творчество*, as well as the artistic expressive devices and symbolic images used in it.

Keywords: Aleksandr Faynberg, The Pushkin Medal, symbolic images, antithesis, metaphor, symbol, lyric poetry.

KIRISH

Aleksandr Arkadayevich Faynberg o'zbek va rus adabiyotida o'zining betakror asarlari bilan chuqur iz qoldirgan adiblardan biri hisoblanadi. U 1939-yil 2-noyabrda Toshkentda tug'ilgan, uning ota-onasi 1937-yil Novosibirskdan ko'chib kelgan. Sobiq Jukovskaya ko'chasida uning bolaligi o'tgan. Yetti yillik maktabni tugatganidan so'ng, u Toshkent topografiya texnikumiga o'qishga kirdi. Tojikistondagi armiyada xizmat qildi. Keyin Toshkent universitetini (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) tugatdi. U yerda filalogiya fakultetining sirtqi jurnalistika bo'limida o'qidi va talabalar ko'p tirajida ishladi. U 15 she'rlar kitobi muallifi bo'lgan, shuningdek, uning ssenariylari bo'yicha to'rtta to'liq metrajli badiiy film va 20 dan ortiq animatsiya filmlari qo'yilgan. U A.Navoiy va ko'plab zamonaviy o'zbek shoirlarining she'rlarini va rus tiliga tarjima qilgan. Uning she'rlari "Navbat", "Yoshlik", "Yangi dunyo", "Sharq yulduzi", "Yangi Volga" jurnallarida va xorijiy mamlakatlar: AQSH, Kanada va Isroildavlatlarida chop etilgan. A.Faynberg mubolag'asiz O'zbekiston she'riy osmonida eng yorqin yulduzlardan biri hisoblanadi. U o'zining rus va o'zbek she'riyatiga qo'shgan betakror hissi uchun O'zbekiston xalq shoiri, 2004-yilda esa Rossiya Prezidenti farmoni bilan "Pushkin" medali bilan taqdirlangan.

A.Faynberg lirikasining muhim jihatlaridan biri – davr ruhini chuqur his etish va uni inson taqdiri bilan uzviy bog'lab tasvirlashidir. Shoir XX asr oxiri va XXI asr boshidagi



murakkab tarixiy jarayonlarni shaxsiy kechinmalar orqali umumlashtirib, lirik tafakkurning yangi bosqichini namoyon etadi. Faynberg she'riyatida vatan va erkinlik g'oyalari an'anaviy shoirparastlikdan yiroq holda, insonning ichki dunyosi va ma'naviy tanlovi bilan bog'lab yoritiladi. Bu esa uning lirikasiga falsafiy teranlik va zamonaviy mazmun bag'ishlaydi. Shoir ijodida tarixiy xotira alohida estetik ahamiyat kasb etib, o'tmish fojialari, urush va zo'ravonlik inson ruhiyatini izdan chiqaruvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Shu orqali Faynberg tinchlik g'oyasini nafaqat ijtimoiy, balki axloqiy qadriyat darajasiga ko'taradi. Uning lirikasining yana bir muhim xususiyati – inson ruhiy kechinmalari nozik psixologik tahlil qilishdir. Shoir iztirob, yolg'izlik, umid va irodani qarama-qarshi qo'ygan holda, inson tabiatining murakkabligini ochib beradi. Til va uslub masalasida Faynberg soddalik va ramziylikni uyg'unlashtirgan ijodkordir. Uning she'rlarida murakkab falsafiy fikrlar oddiy, ravon va musiqiy misralar orqali ifodalanadi, bu esa lirikaning ta'sir kuchini yanada oshiradi. Shoir lirikasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'un holda namoyon bo'lib, bu jihat uning ijodini ko'p madaniyatli adabiy makonda alohida ahamiyatli qiladi. Rus tilida ijod qilgan bo'lsa-da, Faynberg o'zbek xalqiga xos bag'rikenglik, insonparvarlik va ma'naviy poklik g'oyalarini yuksak badiiy darajada ifodalagan. Bundan tashqari, Faynberg lirikasida ijodkor mas'uliyati, so'zning axloqiy kuchi va shoirning jamiyat oldidagi vazifasi masalalari ham muhim o'rin tutadi. Ushbu jihatlar uning she'riyatini faqat badiiy hodisa emas, balki ma'naviy-ma'rifiy maktab darajasiga ko'taradi.

Adibning "Yulduz" she'ri a.Faynberg ijodidagi eng ko'zga ko'ringan va eng mashhur lirik she'rlaridan biridir. Ushbu she'r shoirning falsafiy tafakkuri, ramziy ramziy obrazlarga boy badiiy uslubi hamda insonning ichki olamini teran tasvirlash mahoratini yaqqol namoyon etadi. "Yulduz" she'rida umid, yo'l, taqdir va ruhiy yuksalish g'oyalari ramziy ifoda orqali ochib berilgan bo'lib, u o'quvchini hayot va inson mohiyati haqida mushohada yuritishga undaydi. Mazkur she'r Rustam Musurmon tomonidan tarjima qilingan. Tarjima jarayonida asarning badiiy ruhi, falsafiy teranligi va lirizm ohangi asliga sodiq holda yetkazilgan bo'lib, bu "Yulduz" she'rining o'zbek o'quvchilari orasida keng tarqalishiga va e'tirof etilishiga sabab bo'lgan. Umuman olganda, "Yulduz" she'ri shoir ijodida ramziy-falsafiy lirikaning yorqin namunasi sifatida alohida o'rin egallaydi hamda A.Faynbergning o'zbek adabiy muhitidagi nufuzini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan.

Darhaqiqat, A.Faynbergning "Yulduz" she'ri shoir ijodining eng gullagan davrida yaratilgan she'rlaridan biri bo'lib, unda muallifning hayot, inson taqdiri va ma'naviy izlanishlar haqidagi falsafiy qarashlari mujassamlashgan. She'rning asosiy g'oyasi insonning ichki erkinligi va ma'naviy barqarorligi masalasi bilan chambarchas bog'liq. Shoir tashqi muhitdagi zulmat, notinchlik va iztiroblarga qaramay, inson qalbida umid nuri so'nmasligi lozimligini ta'kidlaydi. A.Faynberg ushbu she'rda inson qalbidagi xissiyotlarni, hayotdagi voqea-hodisalarni ramziy obrazlar orqali ifodalash yo'lini tanlaydi.

Har qaysi yulduzga keladi navbat,
Har bir orzu-niyat bo'lur ijobat.
Kuylovchi chiroqchi osmonda kezib,
Har nurni vaqtida yoqadi albat.



Asardagi eng markaziy ramz – yulduz obrazidir. Yulduz she'r davomida oddiy osmon jismi sifatida emas, balki insonning orzu-umidlari, taqdiri va hayot mazmuni timsolida talqin qilinadi. Shoir yulduzni "yoqib berish" ni so'rab aslida o'z hayotiga nur, yo'l va ma'no tilaydi. Bu obraz insonning eng og'ir damlarda ham umidga ehtiyoji borligini ko'rsatadi.

Ko'pirib qoyaga sakraydi dengiz,
Qirg'oqqa tushaman, shamol sochar tuz.
To hayot ekanman, sayyor chiroqchi,
Falakda yoqib ber men uchun yulduz.
Mayli, dengiz cheksiz, zulmat hamma yoq.
Mayliga, umid yo'q, mayli, yo'q mayoq.
Chiroqchi, ajalim yetgan bo'lsa ham,
Baribir o'zimning yulduzimni yoq.

She'rda uchraydigan chiroqchi obrazi esa alohida e'tiborga loyiq. Chiroqchi ramziy jihatdan taqdir, ilohiy kuch yoki hayot tartibini boshqaruvchi oliy qudratni anglatadi.

Uning har bir nurni "vaqtida yoqishi" hayotdagi adolat, har bir insonning baxti o'z vaqtida kelishiga bo'lgan ishonchni ifodalaydi. Shoir chiroqchiga murojaat qilar ekan, insonning taqdir oldidagi o'jizligi va ayni paytda umid bilan yashashini ochib beradi.

Dengiz obrazi she'rda hayotning murakkabligi, cheksizligi va beqarorligini ramziy tarzda ifodalaydi. Uning ko'pirib qoyaga urilishi insonning hayot sinovlari, ichki kurashlari va iztiroblarini eslatadi. Dengiz bilan birga kelgan qoya obrazi esa yo'ldagi to'siqlar, qarshiliklar va sinovlarni ifodalaydi. Bu obrazlar insonning tinimsiz kurashda ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, shamol obrazi hayotning kutilmagan zarbalari, tashqi ta'sirlar va inson taqdiriga ta'sir etuvchi omillar ramzi sifatida talqin qilinadi. Shamolning "tuz sochishi" hayotning achchiq haqiqatlar va alamli tajribalarini anglatadi.

She'rda zulmat, mayoq yo'qligi kabi obrazlar orqali esa umidsizlik, yo'lsizlik va ruhiy tushkunlik holati tasvirlanadi. Biroq bu qorong'ulik fonida ham yulduz obrazi so'nmaydi. Aksincha, u zulmat ichida yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi.

Shoir hatto ajal obrazini tilga olar ekan, umiddan voz kechmaydi. O'lim ramzi inson umrining nihoyasini anglatga-da, "o'zimning yulduzimni yoq" degan iltijo hayot mazmuniga bo'lgan kuchli ishonchni ifodalaydi. Bu holat asarda umid g'oyasi ustuvor ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

"Yulduz" she'ri badiiy tasviri vositalarga boy bo'lib, ular asarning g'oyaviy-estetik ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi. Avvalo, she'rda ramz(simvol) yetakchi badiiy vosita sifatida qo'llangan. Yulduz – umid, orzu, hayot mazmuni ramzi bo'lsa, chiroqchi taqdir timsolidir.

Dunyo, shamol, zulmat, mayoq kabi obrazlar esa hayotning murakkabligi, sinovlari va ruhiy holatlarini ramziy tarzda ifodalaydi. Bundan tashqari, asarda metafora keng qo'llanadi.

Yulduzning yoqilishi hayotga nur kirishi, umidning paydo bo'lishi ma'nosini anglatadi.



Zulmat esa shunchaki qorong'ulik emas, balki umidsizlik va ruhiy iztirob metaforasidir.

Cheksiz dengiz inson oldidagi muammolarning ko'pligi va yo'lsizlik holatini ifodalaydi. Shuningdek, she'rda takror badiiy tasvir vositasi ham uchraydi. "Mayli" so'zining qayta-qayta qo'llanishi shoirning ichki tan olish holatini, taqdirga bo'ysunishi, biroq ich-ichidan umidni yo'qotmaslik kayfiyatini kuchaytiradi.

Bu takrorlar she'rning hissiy ohangini yanada chuqurlashtiradi. Asarda qarama-qarshilik (antiteza) ham muhim badiiy vazifani bajaradi.

Yorug'lik va zulmat, shodlik va g'am, umid va umidsizlik qarama-qarshi tushunchalar sifatida yonma-yon qo'llanib, hayotning murakkab va ziddiyatli tabiatini ochib beradi.

Shodlik keltirarmi, keltirarmi g'am,
Bilmayman, chiroqchi, menga ushbu dam.
Faqat boshim uzra yoqib ber yulduz,
Menga boshqa narsa kerakmas hech ham.
Xulosa

"Yulduz" she'ri Aleksandr Faynbergning eng go'zal she'rlaridan biri bo'lib, o'zining badiiy tasviriy vositalarga boyligi, ramziy obrazlardan mohirona foydalanganligi bilan boshqa she'rlaridan ajralib turadi.

She'rdagi har bir misralarda o'quvchi qalbiga yetib boruvchi ma'no va mazmun yashiringan. Bu esa she'rning shoir ijodiy merosidagi o'rnini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. View of XX ASR OXIRI XXI ASR BOSHIDAGI O'ZBEK SHE'RIYATIGA FAYNBERGNING TA'SIRI.

<https://spaceknowladge.com/index.php/JOISR/article/view/3464/3689>

2. Faynberg Aleksandr Arkadevich <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>

3. <https://share.google/CPsPRRPTaLUkQEB1w>

4. <https://in-academy.uz/index.php/cajei/article/download/16408/11376/14059>

5. Aleksandr Faynberg "Qoralamaga qasida" kitobi